

hisoblanadi. Shu sababli, mamlakatimizda ham innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish va rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lishi kerak.

MOLIYA BOZORI BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA TIJORAT BANKLARINING O'RNI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Chinorova Shahodat Mansur qizi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,

Mintaqaviy iqtisodiyot yo'nalishi 2-kurs talabasi

Abduxakimov Abdulaziz Abdug'ani o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti,

Menejment yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Maqolada mamlakat iqtisodiyotida moliya bozorlarining o'rni va ahamiyati haqida so'z borgan. Shuningdek, moliya bozorining barqarorligini ta'minlovchi omillardan biri bo'lgan institutsional investorlarning biri hisoblangan tijorat banklari ahamiyati yoritib berilgan, hamda ularning rolini oshirish uchun taklif va xulosalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlari: qimmatli qog'oz, korporatsiya, depozit, investitsiya, emissiya, tijorat banklari

Kirish. Mamlakatning iqtisodiy o'sishini ta'minlashda moliya bozorlarining o'rni yuqori. Tijorat banklari moliya bozorining eng muhim ishtirokchilaridan biridir. Ular nafaqat kredit va depozit operatsiyalarini amalga oshiradi, balki qimmatli qog'ozlar bozori orqali ham iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bugungi kunga kelib, tijorat banklarining investitsiya va emissiya faoliyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonni izchil va xavfsiz amalga oshirish uchun sohaga oid qonunchilik me'yorlarini zamon talablariga mos tarzda ishlab chiqish va ularni muntazam takomillashtirib borish zarur. Shu bilan birga, qimmatli qog'ozlar bozorining barcha ishtirokchilari – fuqarolar, davlat organlari va investorlar – qonunchilik talablariga rioya etishini ta'minlaydigan samarali nazorat tizimini yaratish muhim ahamiyatga ega. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan isloh qilish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirish va tijorat banklarini modernizatsiya qilish ularning investitsiya va emissiya faoliyatini kengaytirish bilan uzviy bog'liqdir. Shu sababli, mazkur yo'nalishda kompleks yondashuv asosida chora – tadbirar ishlab chiqarish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

Qimmatli qog'ozlar bozorini davlat tomonidan tartibga solishda uchun eng muqobil variantlardan biri bu – qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarayotganda ularning ro'yhatdan o'kazilganligi hisoblanadi. Bu jarayonda tartibga soluvchi organ qimmatli qog'ozlarning aniq investitsion loyiha asosida chiqarilganligini, investor mablag'lari oldindan ishlab chiqarilgan biznes – rejaga muvofiq yo'naltirilganini va keljakda foyda keltirishini ta'minlash lozim. Aynan

emissiyani ro'yhatga olish bosqichida nazorat organi moliyaviy firibgarlikning oldini olish maqsadida emitent faoliyatini oldindan tekshiriladi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning so'nggi bosqichi qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishida yangi davrni boshlab berdi. Endilikda ushbu bozorga yanada ko'proq e'tibor qaratilmoqda. Xususan, fond birjası – qimmatli qog'ozlarning ikkilamchi bozori tashkil etildi¹⁵². Shuningdek 2020-2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi tuzilganligi ham bunga yaqqol misol bo'la oladi¹⁵³.



1-rasm. 2024 yil birinchi choragida moliya bozorida sohalar kesimida tuzilgan bitimlar soni, dona¹⁵⁴

Yuqorida keltirilgan rasmda moliya bozorida olib borilgan bitimlar haqida ma'lumot berilgan. 2024 yilning I choragida iqtisodiyotning 10 ta tarmog'idagi AJ va MChJ qimmatli qog'ozlari bilan savdolar amalga oshirildi, ulardan banklar tarmog'idagi qimmatli qog'ozlar eng ko'p savdosi bo'lib o'tgan tarmoq bo'lib, ular bilan 75 205 ta bitim tuzildi, bu o'tgan yilning xuddi shu davridagi ko'rsatkichdan 4 baravar ko'pdir. Bundan tashqari, I chorakda bank, sug'urta va aloqa sohalaridagi emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar soni umumiyligi bitimlar sonining 72,5 foizidan ortig'ini tashkil etdi. Hisobot davridagi bitimlarning eng katta hajmi boshqa tarmoqlarga mansub kompaniyalarning qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar hisobiga (68,94 mlrd so'm) shakllangan va bitimlar umumiyligi hajmining 39,76 foizini tashkil etgan bo'lib, 2023 yilning shu davrida eng katta hajm bank sohasiga oid kompaniyalarning qimmatli qog'ozlari (594,39 mlrd so'm) hisobidan shakllangan.

Quyidagi rasmga ko'ra, eng katta bitimlar hajmi Toshkent shahri va Farg'ona viloyati emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan. Ushbu hududlardagi emitentlarning qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlarning umumiyligi hisobot davrida umumiyligi birja aylanmasining 82,40 foizini (2023 yilning shu davrida - 97,84 foizni) tashkil etgan. Shu bilan birga, Toshkent shahar emitentlarining qimmatli qog'ozlari bilan tuzilgan bitimlar hajmining umumiyligi

¹⁵² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 29.04.2003 yildagi 196-son

¹⁵³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-6992-son

¹⁵⁴https://www.uzse.uz/system/analytics/pdfs/000/000/231/original/2024_yil_I_chorak_bo'yicha_Birjaviy_tah_lil.pdf?1721109912

birja hajmidagi ulushi 50,16%ni, 2023 yilning | choragida esa – 80,00%ni tashkil etgan.

Tarmoqlar	I ch 2023 Bitimlar soni	I ch 2024 Bitimlar soni	I ch 2023 Bitimlar hajmi, so'm	I ch 2024 Bitimlar hajmi, so'm
Agrosanoat	1 589	5 568	324 314 558 414,82	6 196 273 447,51
Banklar	19 023	75 205	594 388 584 597,97	57 948 447 941,51
Lizing	71	340	153 291 010,46	3 149 887,11
Sanoat	8 190	8 810	65 582 833 059,53	9 130 566 300,84
Boshqalar	6 393	9 877	105 397 909,53	68 341 163 618,64
Aloqa	396	10 666	105 397 909,53	1 893 006 809,06
Sur'urta	4 337	11 032	52 201 995 980,75	553 005 725,78
Qurilish	4 929	5 402	4 032 356 918,68	7 743 355 666,44
Transport	23	635	176 001 427,36	645 600 482,01
Energetika	3 050	6 105	3 746 468 200,94	19 431 663 569,36
Jami	48 001	133 640	1 044 806 885 429,57	171 886 233 448,26

2-rasm. 2024 yil I chorak uchun bitimlarning tarmoq tarkibi¹⁵⁵

O'zbekiston Respublikasi bugungi kunda moliya bozorining barqarorligini ta'minlashda tijorat banklarini ayniqsa qimmatli qog'ozlarni o'rnnini yuqori baholash mumkin. Olib borilayotgan islohotlarga qaramasdan, ushbu sohani yanada takomillashtirish zarur bo'lgan sohalari mavjud. Misol uchun korporativ qimmatli qog'ozlarga investitsiyalar hajmini oshirish lozim. Bu banklarning korporativ qimmatli qog'ozlarga investitsiyalarni ko'paytirishi mumkin, natijada esa bu iqtisodiyotning real sektorini moliyalashtirishga yordam beradi. Shuningdek hozirda mavjud bo'lgan qimmatli qog'ozlar portfelini diversifikatsiya qilish lozim bu bizga risklarni kamaytirish va moliyaviy barqarorlikni oshirishga yordam beradi. Depozit sertifikatlarining yanada rivojlantirish orqali banklarga qo'shimcha likvidlik manbai yaratiladi va mijozlar uchun yangi investitsiya imkoniyatlarini taqdim qiladi.

Xulosa

Moliya bozorining barqarorligini ta'minlashda tijorat banklarining roli juda muhim bo'lib, ular nafaqat kredit va depozit operatsiyalari, balki qimmatli qog'ozlar bozori orqali ham iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shami. Mamlakatimizda moliya bozorini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar, jumladan, fond birjasining tashkil etilishi va 2020-2025-yillardagi bank tizimini modernizatsiya qilish strategiyasi, tijorat banklarining investitsiya va emissiya faoliyatini kengaytirishga imkon yaratmoqda. 2024-yilning birinchi choragidagi statistika ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, banklar tarmog'idagi qimmatli qog'ozlar bilan tuzilgan bitimlar soni o'tgan yilga nisbatan 4 baravar o'sgan, bu esa tijorat banklarining aktivligini va bozorning dinamikasini aks ettiradi. Biroq, Toshkent va Farg'ona viloyati kabi ayrim hududlarda bitimlar hajmining markazlashganligi mintaqaviy tafovutlarni ko'rsatib, bozorning muvozanatlari rivojlanishiga e'tibor berish zaruriyatini ta'kidlaydi. Korporativ qimmatli

¹⁵⁵https://www.uzse.uz/system/analytics/pdfs/000/000/231/original/2024_yil_I_chorak_bo'yicha_Birjaviy_tah_lil.pdf?1721109912

qog'ozlarga investitsiyalar hajmini oshirish, portfellarni diversifikatsiya qilish va depozit sertifikatlarini rivojlantirish kabi takliflar banklarning likvidligini oshirish, risklarni kamaytirish va real sektorni moliyalashtirishda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Qonunchilik bazasini zamonaviy talablarga moslashtirish, emitentlarning faoliyatini qat'iy nazorat qilish hamda investorlarning huquqlarini himoya qiluvchi mexanizmlarni takomillashtirish moliya bozorining barqarorligini mustahkamlashda hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. Xalqaro tajribadan foydalangan holda bank tizimini modernizatsiya qilish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rag'batlantirish va institutsional islohotlarni chuqurlashtirish orqali tijorat banklarining samaradorligini oshirish mumkin. Shunday qilib, moliya bozorining barqarorligini ta'minlashda tijorat banklarining roli faqatgina operatsion faoliyat bilan chegaralanmaydi, balki uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga yo'naltirilgan strategik yechimlarni talab qiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 29.04.2003 yildagi 196-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 12.05.2020 yildagi PF-6992-son
3. https://www.uzse.uz/system/analytics/pdfs/000/000/231/original/2024_yil_I_chorak_bo'yicha_Birjaviy_tahlil.pdf?1721109912

FOND BOZORIDA INSTITUTSIONAL INVESTORLARNING JORIY HOLATI TAHLILI

*Jiyanov Uktam Panjiyevich
O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
katta o'qituvchisi*

Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan sa'y-harakatlar ichida fond bozorining ko'lамини kengaytirish, investitsiyalarni samarali jalg etish va likvidligini oshirish asosiy maqsadlardan biri bo'lib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, o'tgan yillar mobaynida O'zbekistonda kapital bozorini rivojlantirishga qaratilgan bir necha qonun va farmonlar qabul qilindi. Ulardan biri, "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi PF-6207-sonli farmonidir.

Ushbu farmonga binoan, quyidagi muhim vazifalar belgilab berilgan:

- ilg'or xalqaro amaliyotni joriy qilish, ortiqcha to'siqlar, cheklovlar va sohaning haddan tashqari tartibga solinganligini bartaraf etish orqali fond bozorida rivojlanish maqsadlariga yo'naltirilgan investitsiyalarni faol moliyalashtirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

- xalqaro moliya bozorlari bilan faol integratsiyalashuv va xorijda muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan ilg'or yondashuvlardan foydalanish orqali barcha toifadagi investorlar uchun kapital bozorining qulayligini oshirish.